

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-7/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.

Абдуллаев Рашид Бабажонович, тиб.ф.д., проф.

Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.

Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.

Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.

Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.

Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.

Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.

Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.

Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.

Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.

Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.

Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.

Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.

Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.

Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.

Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.

Каримов Улўзбек Темирбаевич, DSc

Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.

Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.

Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.

Махмудов Рауфжон Бахоридович, ф.ф.д., к.и.х.

Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.

Пазилев Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.

Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.

Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.

Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.

Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.

Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.

Сапарбаева Гуландам Машариповна,

ф.ф.ф.д.

Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.

Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.

Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.

Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,

б.ф.д., академик

Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.

Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.

Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.

Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д.,

проф.

Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.

Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.

Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.

Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.

Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.

Ҳасанов Шодлик Бекўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.,

проф.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№7/3 (91), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 150 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Annaxasanova I.B. Research of life and works of Alisher Navoi in the european and russian oriental studies	5
Atamuratova N., Dusmetova S. Issues of translating English methaphorical units into Uzbek	7
Bobojonova Sh. Ma'naviyat leksik-semantik kategoriyasining "axloq" ma'noviy guruhi ...	10
Elmurodova F.N. Ingliz va o'zbek tilidagi shaxs tasviri sifatlarining o'zaro badiiy tarjimasini	13
Gulimmetova S. Abduqayum Yo'ldoshev qissalarida muhabbat manzaralari	17
Hayitov H.A., Amonova Sh.A. Badiiy asar taraqqiyotida makaronizm, paralingvistizm va okkazionalizmlarning estetik ahamiyati.....	20
Isakjanova Sh. Essenavis mahorati	22
Musurmankulova Sh.G. O'zbekcha va turkcha frazemalar tavsifi.....	24
Muxtorova U.T. Tarixiy tetralogiyada badiiy xronop masalari tahlili	27
Nabiyeva Sh.I. Ortologiya va tilshunoslikda meyoriy o'quv lug'atlar tasnifi	29
Nurullaeva K.Q. Qarindoshlik terminlarining ilmiy nazariy asoslari	32
Otamuratova M. Zebo Mirzo – tuyg'ular suratin chizgan shoira	37
Rahmatova S. Tibbiy matndagi tarjima muammolari va tarjima qilish jarayonlaridagi qiyinchiliklar	40
Saparboeva L.S. The role of uzbek fairy tales in language culture	43
To'rayeva U.Sh. Yuridik tilning o'ziga xos xususiyatlari	45
Xamdanova X.Sh. "Rustamxon" dostonida sifat so'z turkumiga xos leksemalarning metaforalashuv hodisasi.....	47
Xidirova N.A. Analysis of the scientific literature on household terminology	50
Xudaynazarova M.S. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlari haqida	53
Yaxshilikova N. "Navoiy" romanidagi dialoglarning lingvistik xususiyati.....	56
Yusupova O.S., Alimova D.K. Tasdiq va inkor gaplarning lingvopoetik xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar.....	58
Yusupova O.S., Urmonova H.A. She'riy matnlarda jim qolish usulining qo'llanilishi.....	61
Алланазарова Ф.К. Улуғбек Ҳамдамнинг “Ҳайкаллар ороли” ҳикоясида неомифологик талқин яхлитлиги	63
Барзиев О.Х. Ҳажвий шеърятда амалдорлар образининг поэтик талқини.....	66
Бокарева М. Репрезентация мифологических архетипов в романе В.Аксенова «Москва ква-ква»	69
Бузрукова М. Илтимос электрон хатларининг таҳлил модели.....	73
Воситов В.А. XVIII-XIX асрларда матбуот орқали инглиз тилига ўзлашган туркий ўзлашмалар	76
Гибайдуллина В.Р., Бабаджанов Х.Б. Причины и условия заимствований	79
Гибайдуллина Ф.Р., Бабаджанов Х.Б. А.С.Пушкин и Восток.....	82
Джалилова Х. Ҳенри Филдингнинг “Лиссабонга саёҳат кундалиги” асарининг жанр хусусиятлари	86
Журакулов Р.Д. Фразеология, заимствованная из узбекского фольклора.....	88
Избасарова Ш.Б. “Хотирам синиқлари” дostonининг лексик-семантик тадқиқи.....	91
Кучиев М.А. Илова конструкция таркибида қўлланилган фразеологик бирликларнинг функциялари.....	94
Махаммадиев Ғ.И. Ўрта асрларда Дабусиядан етишиб чиққан алломалар ҳаёти ва илмий мероси	99
Махмудов А.Й. Ҳайнрих Ҳайне ижодида диний бағрикенгликнинг ифодаси.....	102
Муминова А.А. Реклама матнида ундаш категориясини тадқиқ қилишнинг назарий асослари	105

ko'ksida kuchli og'riq turadi va shu yaqin o'rtadagi kasalxonaga olib borishadi. U shu yerda uch kun o'lim bilan olishib yotadi. Uch kundan keyin bir oz o'ziga kelganday bo'ladi va qog'oz qalam olib bir nimalar yozadi. Yozganlarini bir konvertga soladi-da, o'ziga qarab turgan shifokorlardan biriga berib kimga yetkazishi kerakligini tushuntiradi. Nozimni davolagan yigit insofli ekan, maktubni Oltinoyga yetkazadi. Bu maktub "Bizlar uchrashamiz..." deb sarlavha qo'yilgan she'r edi. She'rda Nozim bir umrlik muhabbatiga o'z qalbini ochadi:

Men yolg'on dunyoga silkidim etak,
Bildim, bu dunyoning doim biri kam,
Kuyinma, marvarid yoshlaringni art,
Bizlar uchrashamiz hali, azizam.

Keltirilgan misralar Nozimning Oltinoyga izhori, qiyomatga qolgan diydordan umidvorlik ilinjidir. Asar Nozimning vafoti bilan yakunlansa-da, uni mutolaa qilganimizda tushkunlikni emas, aksincha, qandaydir ilinjni his qilamiz. Bu ilinj umri so'ngiga qadar ilk sevgisidan voz kechmagan Nozim qalbidan bizning qalbimizga ko'chib o'tgandek bo'ladi.

Asar yakunida Abdunabi qanchalik oyoq tirab turib olsa-da, ayovsiz kaltaklasa-da baribir Oltinoy u bilan ajrashadi. Ikkita farzandi bilan ota-onasinikiga qaytib boradi. U tuman markazidan o'ttiz chaqirim uzoqlikda joylashgan bir qabristonga haftada borib kelib yurganini odamlar gapirishdi. Oradan oylar o'tdi, bir tong Nozimning yam-yashil maysalar gilamday qoplagan qabrida, marmar qabrtosh paydo bo'ldi. Unda birgina jumla yozilgan edi: "Bizlar uchrashamiz..."

Muhabbat mavzusidagi badiiy asarlar o'zbek va jahon adabiyotida juda ko'plab yaratilgan. Ularning har biri o'ziga xos ohanglarda aks etganligi ham ayon. Abduqayum Yo'ldoshevning "Shoirning muhabbati" nomli qissasi ham muhabbatni tarannum etguvchi asarlar sirasiga kiradi. Ushbu qissaning bu mavzudagi boshqa asarlardan farqi eng avvalo muallifning tasviriy ifoda yo'sinining o'ziga xosligida ko'rinadi. Asar qahramonlarining hayotiy aks ettirilganligi qissaga yanada jonlilik baxsh etgan. Ushbu asar go'zal tuyg'ularni o'zida jo etganligi bilan qimmatlidir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev A. Ishq afsunlari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B.163.
2. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006. – 548 b.

UO'K 808.3

BADIIY ASAR TARAQQIYOTIDA MAKARONIZM, PARALINGVISTIZM VA OKKAZIONALIZMLARNING ESTETIK AHAMIYATI

H.A.Hayitov, PhD, BuxDPI, Buxoro

Sh.A. Amonova, magistrant, BuxDPI, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik hodisalarning badiiy asarlar taraqqiyotidagi estetik ahamiyati ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: So'z san'ati, tasodif, neologizm, paralingvistika, okkazionalizm, usual so'zlar, makaronizmlar, diaxron, sinxron, fonetikparalingvistika, leksika, nasr, nazm va hokazo.

Аннотация. В данной статье научно и теоретически анализируется эстетическое значение языковых явлений в развитии художественных произведений.

Ключевые слова: искусство слова, совпадение, неологизм, паралингвистика, окказионализм, узуальные слова, макронизмы, диахрония, синхрония, фонетическая паралингвистика, лексика, проза, поэзия и др.

Abstract. In this article, the aesthetic significance of linguistic phenomena in the development of artistic works is scientifically and theoretically analyzed.

Keywords: word art, coincidence, neologism, paralinguistics, occasionalism, usual words, macronisms, diachronic, synchronic, phonetic paralinguistics, lexicon, prose, poetry, etc.

Badiiylik so'z san'atining asosiy mezonidir. Haqiqiy kitobxon badiiy asarga hamisha shu mezondan yondashadi. So'z san'atidagi badiiy usul va vositalar, ularning matndagi poetik vazifasi, o'quvchi tuyg'ulariga ta'siri atroflicha tadqiq etilganda lingvistik hodisalarning o'ziga xos va mos estetik o'rni diqqatimizni tortadi. Asrlar davomida beqiyos taraqqiy etgan, dunyo adabiyoti xazinasini

yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitgan o'zbek nasri o'zining boy ma'naviy zahirasiga egadir. Ushbu ma'naviy zahirada lingvistikaning o'ziga xos xizmati mavjud. Fikrimizni misollar asosida dalillaymiz: “Suvchi indamay turaverdi. Bundan xo'jayin battar jahllanib: “**Svoloch**”!- dedi-yu, haydab qoldi. Sal o'tmay kolxoz raisi yetib kelib, xo'jayin nimalar deganini surishtirdi.

- G'o'zalarni ortiqcha chanqatib qo'yganimizdan juda xafa bo'ldi,-dedi suvchi

- Keyin-chi ?- dedi toqatsizlanib rais.

Keyin... ortiqcha urushmadi, - deb javob qildi suvchi. -**Suvalibich**, deb maslahat berib ketdi, xolos”. (1.52bet)

Quyidagi yana bir misolda so'kinch so'zning xalq tilida izohlanishi makaronizm hodisasini namoyon qiladi.

“- Juda yomon so'kdi, menimcha.

- Nima dedi axir?!

- G'ijinib turib “**Abduboymat**” deganga o'xshash gapni ishlatdi”. Xuddi shu asarda shunday tarzda “**Sauna**” so'zining kelib chiqishi izohlangan. “Nomi-Sauna, darhol payqadimki bu o'zimizning “**Sovunla**” degan so'zdan kelib chiqqan”.(1.52-bet).

Demak, biz keltirgan badiiy parchalardan ayonlashadiki, makaronizmlar boshqa tillarda mavjud bo'lgan so'zlarning o'zbek tilimizda buzib talaffuz qilish demakdir. Ushbu tilshunoslik hodisasi orqali badiiy asarda yengil kulgi hosil qilinadi va asarning estetik qimmati oshadi. Badiiy asarlarda uchraydigan makaronizmlarning aksariyati ruscha yoki boshqa qardosh tillardan olingan so'zlarning biror-bir tovushini buzib va badiiy tasirchanlikni oshirish, reallikni kuchaytirish maqsadida shunday ko'rinishda berilgan. Xuddi shunday paralingvistika, aynan “Tilshunoslik bilan yondosh” degan ma'noga ega. Ushbu atamani dastlab biolog olim Charlis Darvin fanga olib kirgan. Paralingvistik hodisalar ham badiiy nasrda o'ziga xos o'ringa ega. Paralingvistizmlar dastlab ikki turga bo'linadi:

1. Fonetikparalingvistika

2. Mimikparalingvistika

Mimik paralingvistika asosan dramatic asarlarda uchraydi. Ularni anglash uchun badiiy obrazning turli ijtimoiy holatlarda yuz beradigan voqea hodisalarga yuz tasviriy ifodasini ko'z oldimizga keltirish kifoya. Ko'z, qosh, yuz, og'iz, til, lab ishtirokida ifodalangan mimikalar mimikparalingvistikadir. Fikrimizning dalili sifatida mashhur qiziqchi Hojiboy Tojiboyevning o'g'iz bo'shlig'ida kofe tayyorlash jarayonini eslash kifoyadir. Fonetik paralingvistika esa, badiiy obrazning ma'lum maqsad asosida bir so'zni juda uzundan uzoq cho'zib talaffuz qilinishidir.

- “As-sa-lo-mu-u-u, a-lay-ku-u-uum! Boy ota.

- A, zumrasha gapirchi, nega kelding?!”.(2.69)

Tilshunoslikning bu nazariyasi ham badiiy adabiyotning taraqqiyoti, estetik qimmati, xalqona hayot mantig'iga mos tasvirlash obykti sifatida estetik ahamiyat kasb etadi. Okkazonalizm esa lotincha so'zdan olingan bo'lib, “tasodif” degan ma'noni bildiradi. Bunda leksik ma'noning tushuncha bilan bo'lgan munosabatini chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlab o'tish joiz. Sababi so'zning okkazonal ma'nolari aynan leksik ma'no bilan tushuncha o'rtasidagi munosabatlar asosida quriladi. Okkazonal ma'noga nutqiy (kontekstual) ma'no yoki leksik qo'llash ham deyiladi. U ma'lum bir kontekstni tuzish jarayonida muayyan bir so'ziga sun'iy ravishda tiqishtiriladi. Muallif o'z fikrini ixchamlashtirish yoki subyektiv bahoni ifodalash maqsadlarida okkazonal ma'nodan unumli foydalanadi. Ijodkorlarning xayolot dunyosi mahsulini kitobxonga yetkazishda badiiy estetik vosita hisoblangan okkazonal so'zlar asarning ma'naviy qudratini oshirish bilan bir qatorda yozuvchi ijodkorning so'z qo'llash mahoratini namoyon qiladi. Masalan: “saxar xez chollar”, “xotin chalish kishi”, “bodaparastyigit”, “olovsochsanam” kabi. Ushbu okkazonal so'zlar kontekstda tasodifan paydo bo'ladi. Quyidagi she'r bandi fikrimizni asoslaydi.

Ko'hna **tol beshikdan**

Boshlangan olam,

Senga iddaolar

Qilmay sevaman.(3.20-bet)

Yoki yana bir misol:

Yalpizlari ko'kka tutash,

Tunlari zar,
Tongi marjon.

Yulduzlari –**gotgan quyosh**,
Quyoshlari **kuydirmajon**.(3.23)

Okkazional so'zlar o'zbek tili leksikasi tarkibiy qismiga kirmagan bo'lsa-da, kundalik hayotimizda, har kun o'qiyotgan nasriy va nazmiy asarlarda doim uchrab turadi. Xulosa qilib aytganda lingvistik nazariyada ilmiy asosiga ega bo'lgan til hodisalari badiiy adabiyot taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
2. Ahmadovich H. H., Amrullojeva S. D. XX ASR QISSACHILIGI TARAQQIYOTIDA FOLKLORNING LATIFA JANRI TA'SIRI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 302-304.
3. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – С. 101-105.
4. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 350-352.
5. Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 349-350.
6. Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 293-294.
7. Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 332-334.
8. Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 343-345.
9. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.
10. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 100-102.
11. Ahmadovich H. H., Amrullojeva S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 248-250.
12. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – С. 141-145.
13. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 25. – С. 133-137.
14. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – С. 130-133.
15. BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 415-417.
16. Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/С. – С. 49-52.
17. Хайитов Х. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
18. Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
19. Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 9. – С. 1-4.
20. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 2. – С. 140-144.
21. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 306-309.
22. Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLANI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 281-285.
23. Хайитов Х. А. ҒАҒУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3. – С. 679-687.
24. Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.
25. Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 4. – С. 59-63.
26. Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – С. 11-14.

ESSENAVIS MAHORATI

Sh.Isakjanova, magistrant, Urganch Davlat Universiteti, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Jevachining o'g'li" essesi tahlilga tortiladi. Esseda Nusratullo jevachi hamda uning zamondoshlari taqdiri misolida o'zbek xalqining boshiga tushgan musibatlar, qiyin davrlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: esse, jevachi, qatag'on, o'zbek ishi, Sa'dulla mergan, Telman Gdlyan guruhi, azroil, otradboshi, siyosiy o'yin, tarix

Аннотация. В данной статье анализируется очерк «Сын Джевачи» народного поэта Узбекистана Сироджиддина Сайида. В очерке описывается судьба Нусратулло Джевачи и его современников, трагедии и тяжелые времена, выпавшие на долю узбекского народа.

Ключевые слова: очерк, джевачи, репрессии, узбекское дело, снайпер Садулла, группа Тельмана Гдлына, азроил, отрабoshi, политическая игра, история

Abstract. This article analyzes the essay "Son of Jevachi" by the People's Poet of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid. The essay describes the fate of Nusratullo Jevachi and his contemporaries, the tragedies and hard times that befell the Uzbek people.

Keywords: essay, jevachi, repression, Uzbek case, Sadulla sniper, Telman Gdlyan group, azroil, otradboshi, political game, history

Ma'lumki, Sirojiddin Sayyid publitsistikasida adabiy, falsafiy, ijtimoiy kabi turfa xil yo'sindagi ohanglar jamuljamiga, hayotning rang-barang jilosiga duch kelamiz. Ijodkor ba'zi esselarida tirik kitoblar haqida mushohada yuritsa, ba'zilarida nomi abadiyatga daxldor adabiyot vakillarining yorqin siyomosini ko'z oldimizda yaxlit gavdalantiradi...

Sirojiddin Sayyidning "Jevachining o'g'li" nomli hajmi ixcham, ammo mohiyatan nihoyatda teran, o'zbek xalqining "qon yutib" yashagan o'tmishidan, ro'shnolik neligini bilmagan zalvorli tarixidan saboq beruvchi essesi ham kitobxon tasavvurida jiddiy mulohazakorlik uyg'otishi, bugungi kundan diliga shukronalik jo qilishi, shubhasiz. Esse "jevachi" , "jibachi" so'zlarining "Navoiy asarlari lug'ati" da berilgan istilohiy ma'nosini keltirish bilan boshlanib, mutolaa davomida Nusratullo jevachining Hisor tog'larining Sariosiyo tizimidagi eng tepada joylashgan qishloqlardan birida tug'ilganidan boxabar qilinadi. Jevachining o'g'li Sa'dullo mergan otasining 37-yil qatag'oniga giriftor bo'lganini alam bilan, ruhiy og'riq bilan eslab o'tadi. Tarixdan yaxshi ma'lumki, bu davrda mamlakatda Lenin tomonidan asos solingan totalitar boshqaruv tizimi Stalin tomonidan yana-da alanga oldirilib, hukmron partiyaning zo'ravonligi misli ko'rilmagan yo'qotishlarni boshimizga yog'diradi. Jevachining o'g'li Sa'dullo merganni ham boyning o'g'li deb surgun qilib yuborishadi. Yo'lda poezddan ayoli bilan tushib qolgan merganning yillar davomida qilmagan tutumi, ko'rmagan kuni qolmaydi. Eng achinarlisi, sho'ro hukumatining nafaqat shaxs erkiga, balki, or-